Fransuz antropologi Klod Levi-Stros, ovqatlanishning madaniy jihatlari va oshpazlik an'analari, shu jumladan, madaniy merosning muhim elementi sifatida taom nomlarini tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi (10).

**Xulosa.** Taom nomlarini o'rganish ushbu mintaqaning madaniy xususiyatlarini, uning tarixi, urf-odatlari va turli etnik guruhlarning oshpazlik madaniyatini shakllantirishga ta'sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar til, madaniyat va ovqatlanish o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, taom nomlarini o'rganish orqali madaniy merosning boyligini ochib beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy taomlar har qanday xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatining muhim qismidir. Oshpazlik leksikasini o'rganish milliy oshxonaning tarixi va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Shuning uchun taom nomlarini har tomonlama o'rganish tilshunoslikda katta istiqbolga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Леви-Строс К. Структурная антропология. М., "Эксмо-Пресс", 2001, 512 с.

(2). Леонтьев А.А. Язык, познание и общение. Методологические проблемы анализа языка. Ереван, 1976, с. 46.

(3). Москалюк Г.С. Лексическая гетерогенность кулинарных рецептов российских немцев. Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 9. Филология. Востоковедение. Журналистика. 2013, вып. 1, с. 166–177.

(4). Румянцев О.К. В перспективе культурологии: повседневность, язык, общество. Рос. ин-т культурологии, редколл.: О.К.Румянцев (отв. ред.) и др., М., "Акад.проект: РИК", 2005, с. 449.

(5). Шор Р.О. Язык и общество. Предисл. В.М.Алпатова, 3-е изд., испр. и доп., М., "Либроком", 2010, 160 с.

(6). Уайтхед А.Н. Избранные работы по философии. М., 1990, 366 с.

(7). Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М., изд-во МГУ, 2004, 348 с.

(8). Леонтьев А.А. Язык, познание и общение. Методологические проблемы анализа языка. Ереван, 1976, с. 46.

(9). Шахнарович А.М. Язык, культура и социализация личности. Национально-культурная специфика речевого общения народов СССР. Москва, "Наука", 1982, 20 с.

(10). Эверетт Д.Л. Не спи – кругом змеи! Быт и язык индейцев амазонских джунглей. Сост. А.Д.Кошелев. М., 2016, 383 с. (Разумное поведение и язык. Language and Reasoning); https://mybook.ru/author/deniel-everett/kak-nachinalsya-yazyk-istoriya-velichajshego-izobr/

**Navruzova Muyassar Gaybullayevna (f.f.f. doktori (PhD), BuxDU dotsenti)**

## TIBBIY BIRLIKLARNING RIVOJLANISH TARAQQIYOTI HAMDA GENEZISI

***Annotatsiya.*** *Tibbiy terminologiyaning rivojlanishi va shakllanishi qadim zamonlardan buyon davom etib kelgan jarayon sanalib, bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga egadir. Tibbiyot sohasining o'ziga xos terminlari mavjud bo'lib, ularning to'g'ri va aniq ishlatilishi, ilmiy tavsifiga asoslanishi, tibbiy faoliyatni samarali yuritish, bemorlarga aniq tashxis qo'yish va davolash jarayonini sifatli tashkil qilish uchun zarurdir. Ushbu maqolada terminologiyaning rivojlanish taraqqiyoti hamda genezisi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *muloqot, terminologizatsiya, adabiy til, dialektal terminologiya, leksik birlik, so'z birikmalari, nutq, tibbiy xodimlar nutqi, umumiste'mol leksika, umumiy atamalar, maxsus keng atamalar, maxsus tor atamalar.*

## ГЕНЕЗИС И РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

***Аннотация****. Развитие и формирование медицинской терминологии – процесс, который продолжается с древних времен и актуален по сей день. Медицинская сфера имеет свою терминологию, правильное и точное ее использование, основанное на научном описании, необходимо для эффективного осуществления врачебной деятельности, точной диагностики пациентов и качественной организации лечебного процесса. В данной статье дается обратная связь по развитию и эволюции терминологии.*

***Ключевые слова:*** *коммуникация, терминология, литературный язык, диалектная терминология, лексическая единица, словосочетания, речь, речь медицинского персонала, общая лексика, общие термины, специальные широкие термины, специальные узкие термины.*

## THE DEVELOPMENT AND GENESIS OF MEDICAL UNITS

***Annotation.*** *The development and formation of medical terminology is a process that has been ongoing since ancient times and is still relevant today. There are specific terms in the medical field, the correct and accurate use of which, based on scientific description, is necessary for the effective conduct of medical activities, accurate diagnosis of patients and high-quality organization of the treatment process. This article provides feedback on the development and genesis of terminology.*

***Keywords:*** *communication, terminology, literary language, dialectal terminology, lexical unit, word combinations, speech, speech of medical personnel, general vocabulary, general terms, special broad terms, special narrow terms.*

**Kirish.** Tilda insonni o‘rab turgan obyektiv borliq, fan va texnika taraqqiyotidagi yutuqlar, moddiy va ma’naviy madaniyat har bir tushunchada o‘z aksini topadi. Yangi bilim, zamonaviy sohalar, innovatsiyalar nominatsiyaga muhtoj yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda. Umumiy leksikadan o‘zining professonallik, kommunikantlar anglamagan holda, nutqiy aloqani boshlay olmaydigan o‘ziga xos denotatga yo‘naltirila olishi bilan maxsus leksika ajralib chiqmoqda. Turli kasb egalarining kundalik muloqoti umumadabiy leksika yordamida amalga oshirilsa, maxsus muloqotning samaradorligini ta’minlash uchun insonning mehnat faoliyati natijalarini yetarlicha aniq aks ettiradigan va boshqa muhitda kamdan kam qo‘llaniladigan atamalar (maxsus so‘zlar) yaratiladi. Bularning barchasi maxsus leksik birliklarning ko‘payishiga, butun terminologik tizimlarning shakllanishiga olib keladi. Maxsus leksika ma’lum bir kasbiy faoliyatga tegishli bo‘lib, shu sohaning terminologik bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday termin, ilmiy-texnik atama yoki oddiy so‘z (yoki so‘z birikmasi) belgilangan mazmunga ega bo‘lishi kerak. Ko‘pgina tibbiy atamalar ma’lum farazlar, nazariyalar, qarashlar, tushunchalarning mohiyatini aks ettiradi. Har bir termin atama, so‘z yoki so‘z birikmasidir, lekin har qanday atama, so‘z yoki so‘z birikmasi termin bo‘lavermaydi.

**Asosiy qism.** Terminning umumiste’moldagi so‘zdan farqini tasdiqlovchi materiallar terminni o‘rganish bo‘yicha mustaqil fanning paydo bo‘lishiga hamda soha lug‘atlari uchun asos vazifasini o‘taydi. Ilmiy adabiyotlarda tibbiy terminlar tarixi miloddan avvalgi 3000–2000-yillarga borib taqalishi qayd etilgan. Qadimgi Rim, lotin tilidagi tibbiyot terminologiyasi dunyo tibbiyot sohasining negizini tashkil qiladi.

Xalq tabobati tomonidan to‘plangan ma’lumotlar qadimgi dunyoning eng yirik shifokorlari – Bogar, Tirumular, Sushruta, Charaka, Vagbhata, Kashyapa, Nagarjuna, Amenhotep, Byan-Syue, Chjan Tszi, Rufus, Erasistrat, Pifagor, Aristotel, Disquridus, Gippokrat va Galen, Boquniy Yunoni, A.Sels, Zahraviy, Roziy, Abu Sahl Masihiy, keyinchalik, Ibn Sino, Muso Qurtubiy, Ibn Nafis, Al-Oqsaroyi, Chag‘miniy, Muhammad Akbar Arzoni, Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy, Alixonto‘ra Sog‘uniy, Muhitdin Umarov asarlaridan olingan [1;32-b.].

“Xalq tabobati” atamasi, dastlab, XIX asrning birinchi yarmida nemis olimlarining tibbiy asarlarida paydo bo‘lgan. Bu atama kasalliklar va ularni qanday davolash kerakligi haqida odamlar orasida hukm surayotgan deyarli ko‘rinmas turli xil g‘oyalarni o‘z ichiga olgan. Bu davrda shifokorlar aholining tibbiy tushunchalarini oshirishga va ularning bilimlarini birlashtirishga harakat qilishgan. Tibbiyot terminologiyasi ham xalq tomonidan yaratilgan xalq tabobati birliklariga tayangan.

Tibbiy atamalar ilk bor Gippokrat (miloddan avvalgi V asr) tomonidan to‘plangan va yozib olingan. Gippokrat qanday manbalardan foydalanganligi bizga ma’lum emas. Ma’lumki, u tibbiyot bilan tanishish maqsadida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgan. Gippokrat inson tanasida to‘rtta suyuqlik bor deb hisoblagan, bular: qon, balg‘am, sariq safro, qora safro. Gippokrat nazariyasi kasalliklarning nomlarini ifodalovchi ba’zi atamalarda ham o‘z aksini topgan. Masalan, *melanxolik* (lotincha melancholia – qora safro) – 1) depressiyaga, g‘amginlik, tushkunlik kayfiyatiga moyil kishi; 2) Gippokrat ta’limotiga ko‘ra, 4 mizojning biri. Yuksak darajadagi ta’sirchanlik va hissiyotning nisbatan yuqori ifodalanishi.

O‘rta Osiyoda tibbiyot terminologiyasining boshlanish nuqtasi sohaning qadimgi vakillari – shomonlar faoliyatiga borib taqaladi. Miloddan avvalgi V ming yillikda “falvinlar” (fors tilida «fal» – fol ochish) va “bakshi”lar (sanskrit tilida – o‘qituvchi) tomonidan ilk tibbiyot terminlari yaratilgan va amaliyotda faol qo‘llangan. O‘rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va Afg‘onistonda miloddan avvalgi I ming yillikda yashagan xalqlarning tibbiyoti va tibbiy terminlar haqida keng ma’lumot beruvchi birinchi ishonchli manba «Avesto» (miloddan avvalgi IX asr va milodiy III asr) zardushtiylikning muqaddas kitobidir. O‘sha davrda odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida dastlabki tushunchalar shakllandi va yangi terminlar yaratildi. O‘rta Osiyoda zardushtiylik paydo bo‘lishi bilan «parixona» (forscha «pari» – «ruh», «xon» – kinnachilik) va «devana» – devlar egasi singari atmalar qo‘llana boshladi. IV asrda O‘rta Osiyoda bo‘lajak tabiblar o‘qitiladigan kasalxonalar paydo bo‘ldi, tibbiyot terminologiyasi «dastikar» – jarroh, «koanik» – ko‘z shifokori kabi atamalar bilan boydi [3;12-b.].

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To‘nyuquq, Kultegin, Bilga xoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg‘ul bo‘lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo‘shiqlarida ham mavjud bo‘lgan. Tibbiyotga oid ilmiy asarlar Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino davrlaridan XX asrgacha arab, qisman fors-tojik tillarida yozilgan bo‘lib, ma’lum davrlar o‘tgach, sharoit taqozosi bilan ular turk, o‘zbek, tatar va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu tarjimalarning aksariyati qo‘lyozma holda turli ilmiy dargohlarda saqlanmoqda. Roziy, Ibn Sino, Zaynuddin Jurjoniy, Nasriddin Tusiy va boshqalarning tibbiyotga oid asarlari turli davrlarda turk tiliga tarjima qilingan [4;28-b.]. Uzoq tarixga ega bo‘lgan ba’zi fanlarning terminlari singari, juda ko‘p so‘zlar hozirgi kunda tibbiyotda maxsuslashib, tibbiy terminga aylanib, kishilarning kundalik turmushida faol qo‘llangani sababli, folklor tili orqali bizgacha yetib kelgan: *bosh-kalla, qo‘l, oyoq, panja, yelka, tovon, quloq, burun, o‘pka, jigar, buyrak, taloq* singari somatizmlar shular jumlasidandir.

Tibbiyotning rivojlanish tendensiyalari va uning fan sifatida shakllanish tarixi haqida gapirganda, “Tib qonunlari” asarini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. 1020-yil atrofida tugallangan, tibbiyotdagi asosiy asar hisoblanuvchi “Tib qonunlari” eng muhim ishlardan biri sifatida e’tirof etilgan va dunyo shifokorlari uchun bosh qo‘llanma bo‘lgan. “Tib qonunlari” XII asrda Toledoda arab tilidan lotin tiliga tarjima qilinib, butun Yevropa bo‘ylab ko‘plab arab, ibroniy va lotin nusxalarida tarqatildi. Bosma nashr paydo bo‘lgach, Yevropada 30 martadan ortiq bosib chiqarildi. Tariximizda ko‘plab tabib va hakimlarning ismlari zikr etilganidan xulosa qilishimiz mumkinki, sharqda tibbiyotga, aniqrog‘i, xalq tabobatiga qiziqish kuchli bo‘lgan [6;17-b.].

Ilmiy tadqiqotlar va hayotiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Abu Ali ibn Sino qo‘llagan va undan keyingi davrlarda faol bo‘lgan davolash usullari xalqda hozirgi davrlarga qadar saqlanib qolgan. Masalan, “Tib qonunlari”da temirchi suvi, temir suv birikuvlari uchraydi. Bu so‘zlar va birikmalar o‘rta asrlar shifokorlar nutqida faol qo‘llangan. Temir suvi davo maqsadida ishlatilgani ma’lum bo‘ladi. Hozir ham xalqda biror narsadan qattiq qo‘rqqan shaxsga yuragi jarohatlanmasin, degan mazmunda temir (temir asbob)ni qizdirib, suvga botiriladi va bemorga ichiriladi. “Tib qonunlari”ga *nucha* (bo‘yinning orqa qismi), *albugineum* (oqsilli), *ileum* (qovurg‘a ortidagi ichak), *retina* (to‘r parda), *venacephalica* (bosh tomir), *vermiscerebelli* (kichikmiya qurti), *auriculacordis* (yurak quloqchasi), *orbita* (ko‘z chanog‘i), *duramater u piamater* (miyaning qattiq va yumshoq qobig‘i) kabi terminlar kiritilgan.

Jahon fani, xususan, tibbiy fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Abu Ali ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o‘z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullangan va ularga oid asarlar yaratgan. Misol uchun, hozirgi kunda nutqimizda ishlatiladigan: shaqiqa (migren), ibrida (impotensiya), sarsom (meningit), xilfa (diareya), sakta (apopleksiya), sharo (eshakem) kabi bir qator birliklari ham olimning “Tib qonunlari” kitobida keltirilgan. Ibn Sino asabiy va ruhiy kasalliklarni aniqlash va ularni davolash sohasida ham ko‘p yangiliklar kiritgan. Uning jarrohlik sohasidagi ishlari ham juda muhimdir. “Tib qonunlari” tibbiy terminlar aks etgan birlamchi manba hisoblanadi. Unda IX–X asrlarda faol qo‘llangan tibbiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan: šalïsa (shaliso) – har jihatdan manfaatli dori; taryaq (taryoq) – zaharlarga qarshi murakkab tarkibli dori. Mitridus – murakkab tarkibli dori, yaratuvchisining nomi bilan atalgan. Ar-Roziy kasalliklar tarixiga oid maxsus asar yozgan. Bu asarda obila, qizamiq, isitma kabi tibbiy terminlar qayd etilgan [7;29-b.].

Ibn Sinoning dorishunoslikka qo‘shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. U taklif etgan dorilar asrlar davomida keng ishlatilib keldi va hozir ham ularning ko‘pchiligi o‘z qiymatini yo‘qotgan emas.

Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarida, muallifi noma’lum bo‘lgan “Kitob at-tuhfa azzakiya fil lug‘at at-turkiya”, “Tarjumon”da ham tibbiy terminlarga doir mulohazalar uchraydi. Ushbu davr ter-minologiyasini saqlab qolish va tartibga solishda o‘zbek lug‘atchiligi tarixida ulkan ahamiyatga ega Mahmud Koshg‘ariyning «Turkiy so‘zlar devoni», ya’ni «Devonu lug‘otit-turk» (1074–1075) asari muhim o‘rin tutadi. «Turkiy so‘zlar devoni»dan ajdodlarimiz yaratgan va foydalangan: esan, sag‘, ich (kasallik), ag‘riq, qant (yara), bars (shish), tutug‘ (tutqanoq), isig‘liq, bezgak, sariq, chumili (bosh aylanishi), chechak, qam-chig‘u (qichiq toshma), cherpich (zaif ko‘z) kabi tibbiy atamalar keng o‘rin olgan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida o‘simlik, hayvon va ma’danlarga oid 849 ta dorivor terminlarni izohlab bergan.

Tibbiy terminologiya tushunchasi tibbiyot fanining barcha terminlarini birlashtiradi. Tibbiy leksika atamasi ostida, biz tilning ilmiy, kundalik va boshqa kichik tizimlarida ishlaydigan barcha tibbiy nomlar va atamalarni tushunamiz. Terminlar tibbiy leksikaning faqat bir qismi bo‘lib, bu soha vakillarining professional va terminologik bo‘lmagan so‘zlashuvini ham o‘z ichiga oladi. Tibbiy leksik qatlam boshqa tarmoqlarda ham keng tarqalgan. Masalan, qonga singib ketmoq, vahima virusi, choynakning burni va boshqalar. Tibbiy terminologiyada muhim sanalgan va hal etilmagan masalalardan biri boshqa sohalarda tibbiy leksi-

kadan foydalanish paytida kognitiv aspektlarni, semantik o‘zgarishlarni va saqlanib qolgan semantik asoslarni aniqlash va oydinlik kiritish, qaysi tibbiy atama va iboralar ko‘proq va nima uchun majoziy ma’noga ega bo‘lishini tahlil qilish, terminning semantik qatlami so‘z bilan birga ko‘chirish yoki ko‘chirmaslik masalasidir.

Tibbiyot terminologiyasini ikki qatlamga ajratish mumkin: a) umumiy terminologiya; b) ixtisoslashgan terminologiya.

Umumiy terminologik qatlam fanning turli sohalarida qo‘llaniladigan so‘zlar, atamalar, masalan, dori, qurilma, vosita, element nomlarini o‘z ichiga oladi. Maxsus fan sohasida qo‘llaniladigan atamalar tibbiyotning yuqori ixtisoslashgan terminologiyasiga tegishlidir, masalan, koronar yurak kasalligi, adenomatoz, infeksiya va boshqalar.

Yuqori ixtisoslashgan terminologiya bilimning har bir sohasiga xos voqelik, tushuncha va kategoriyalarni nomlovchi, maxsus terminlarning alohida xoslangan qatlamidir. Yuqori ixtisoslashgan atamalar uchun tashkiliy tamoyil bu atamalarning har birida va terminologiyada (maxsus so‘zlarning umumiy to‘plami sifatida) standart tushunchalar toifalarining mavjudligi bo‘lib, unga ko‘ra, atamalarning asosiy korpusi taqsimlanadi. An’anaga ko‘ra, tadqiqotchilar to‘qqizta shunday toifani (predmetlar, jarayonlar, holatlar, miqdorlar, rejimlar, xossalar, o‘lchov birliklari, fanlar va tarmoqlar, kasblar va hunarlar) ajratadilar. Tarmoq terminologiyasi ichida uning u yoki bu atributi bo‘yicha tasnifi doimo o‘ziga xos, ko‘pincha, qaytarilmas xarakterga ega bo‘ladi. Ayniqsa, tematik guruhlar ichida umumbashariy tushunchalar kategoriyasi asosida shakllangan terminologik birlashmalar ajratilsa, bu alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Toifalarning sonini tegishli bilim sohasining tarmoq terminologiyasini qamrab olish darajasi va to‘liqligiga qarab farq qilishi mumkin.

Ma’lumki, tibbiy terminlar reklama matnlari, ommabop ma’lumotnomalar, tibbiy adabiyotlar, plakatlar va boshqalar orqali kundalik nutqda keng ommalashtiriladi. Boshqa hech bir fan tibbiyot kabi o‘zining muhim tushunchalari bilan kishilarning kundalik hayotiga bu darajada chuqur kirib bormaydi.

Umumtilshunoslikda tibbiy terminlar va ularning nazariy hamda amaliy jihatlari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, terminologik tizimda tibbiy birliklarning semantikasi, terminlar pragmatikasi, ularning leksikografik tadqiqi, amaliyotga tatbiq etilishi kabilar ilmiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

**Xulosa.** Shunday ekan, ularni turli manbalardan aniqlash, leksik-semantik va etimologik jihatdan tadqiq qilish hamda to‘g‘ri tizimlashtirish yuzasidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kundagi muhim masalalardan biridir. Tildagi tibbiy terminlarni leksik-semantik va etimologik jihatdan tahlil qilish asosida tasniflash hamda ulardagi tarixiy, milliy-madaniy, lingvokulturologik xususiyatlarni ochib berish muhim ahamiyatga ega. Chunki shu asosda o‘zbek tilining umumtilshunoslikdagi o‘rni va rolini, jumladan, tibbiy birliklarni yuzaga keltirishdagi hissasini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Аллаяров Х.А. История народной медицины Средней Азии. Автореф… дис. д.м.н., Москва, 1993, с. 12.

(2). Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. Тошкент, “Фан”, 2010, 127-бет.

(3). Аллаяров Х.А. История народной медицины Средней Азии. Автореф… дис. д.м.н., Москва, 1993, с. 12.

(4). Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти тарихи. Тошкент, Абу Али ибн Сино номидаги “Тиббиёт” нашриёти, 2001, 17-бет.

(5). Абдулхаирова Ф. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. falc. док. дисс., Тошкент, 2021, 17-бет.

(6). Қодиров А. Тиббиёт тарихи. Тошкент, “Ибн Сино”, 1993, 87–89-бетлар.

(7). Қосимова Ф.Х. Ўзбек-инглиз тиббий терминлари лингвомаданий бирлик сифатида («ҳомиладорлик» семали бирликлар мисолида). Ученый XXI века, 2022, № 2 (83).

(8). Абдулхаирова Ф. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси. Филол. фан. falc. док. дисс., Тошкент, 2021, 17-бет.

(9). Медицинский справочник. История развития медицины. М., 2005.

(10). Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob, Тошкент, 1992, 29-бет.

(11). Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. V kitob, Тошкент, 1992, 29-бет.

(12). Абу Бакр Ар-Розий. Касалликлар тарихи. Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1994, 7-бет.